



JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI AXLOQIY TARBIYALASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Raxmonova G.U.

Qarshi davlat universiteti dosenti

Tayanch so‘zlar: jismoniy tarbiya, dars, pedagogika, tarbiya, ta'lim, axloq, jarayon, tizim, muammo, o‘quvchi.

Ключевые слова: физическое воспитание, урок, педагогика, воспитание, образование, этика, процесс, система, проблема, ученик.

Key words: physical education, lesson, pedagogy, upbringing, education, ethics, process, system, problem, student.

РЕЗИОМЕ:

Mazkur maqola jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarni axloqiy tarbiyalashning pedagogik asoslari borasida fikrlar bayon etilgan.

РЕЗИОМЕ:

В данной статье описаны педагогические принципы нравственного воспитания учащихся на уроках физической культуры.

SUMMARY:

This article presents ideas on the pedagogical foundations of moral education of students in physical education classes.

Respublikada oxirgi yillarda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, imkoniyatlari cheklangan shaxslarning jismoniy reabilitatsiyasi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda[1]. Shu bilan birga, jismoniy tarbiya va sport sohasida aholi sog‘lig‘ini mustahkamlashga ko‘maklashadigan aniq dasturlarni amaliyotga joriy etish, yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntaza shug‘ullanishlari uchun shart-sharoitlarni yaratish, yoshlarni har tomonlama etuk shaxs sifatida shakllanishiga xukumatimiz tomonida qator farmon va qarorlar chiqarilmoqda. Shu asnoda 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlarida Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishda ularni

jismonan sogʻlom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qatʼiy hayotiy nuqtai-nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish...yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qoʻllab-quvvatlash hamda amalga oshirish, bolalar va yoshlar oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini shakllantirish, ularni ma'naviy-axloqiy, estetik, jihatdan tarbiyalash, shuningdek, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish belgilab qoʻyilgan. Shu nuqtai nazardan hozirda umumiy oʻrta ta'limning jismoniy tarbiya darslarida oʻquvchilarni har tomonlama tarbiyalash ustuvor vazifalar sirasiga kiradi.

Bizning olib boradigan tadqiqotimizda jismoniy tarbiya darslarida boshlangʻich sinf oʻquvchilarini axloqiy tomondan talqin etish bosh maqsadimiz hisoblanib, unda bugungi kunda yosh avlodni har tomonlama etuk, barkamol insonlar etib shakllantirishdir.

Jismoniy tarbiya jismoniy madaniyatning bir turi boʻlib, shaxsning har tomonlama rivojlanishi, jismoniy madaniyatga ijobiy munosabat, qadriyat yoʻnalishlari, eʼtiqodlar, didlar, odatlar va moyilliklarni rivojlantirish manfaatlarida jismoniy mashqlarga boʻlgan ehtiyojni shakllantirish jarayoni hisoblanadi[2].

Jismoniy tarbiya jarayonida sotsiologik, gigienik, biotibbiyot va uslubiy tarkibga oid jismoniy tarbiya va sport bilimlarining keng doirasi ham olinadi. Bilim jismoniy mashqlarni bajarish jarayonini yanada mazmunli va shuning uchun yanada samaraliroq qiladi[3]. Shunday qilib, jismoniy tarbiya - bu pedagogik jarayonning barcha belgilariga xos boʻlgan muayyan ta'lim muammolarini hal qilish jarayoni boʻlib, xizmat qiladi. Jismoniy tarbiyaning oʻziga xos xususiyati shundaki, u odamning jismoniy qobiliyatlarini tizimli ravishda shakllantirish va jismoniy rivojlanishini ta'minlaydi, ularning umumiyligi uning jismoniy qobiliyatini qatʼiy belgilaydi.

Jismoniy tarbiya bu bolalarning jismoniy va sport faoliyatining maqsadli, aniq tashkil etilgan va tizimli ravishda amalga oshiriladigan tizimi. Bu yosh avlodni jismoniy tarbiya, sport, harbiy va amaliy faoliyatning turli shakllarida oʻz ichiga oladi, bolani aqli, his-tuygʻulari bilan uygʻunlikda barkamol rivojlantiradi.

Jismoniy tarbiya maqsadi - bu bola organizmining aqliy, mehnat, hissiy - axloqiy, estetik tarbiya bilan yaqin, organik birlikda uygʻun rivojlanishi.

Toʻgʻri jismoniy tarbiya, sport tadbirlarida ishtirok etish sheriklik, kollektivizm, oʻzini oʻzi tarbiyalash, irodani mustahkamlashga yordam beradi.



Jismoniy tarbiya o'quvchilarga pedagogik ta'sirning kengroq doirasini qamrab oladi.

Jismoniy tarbiya mazmunida o'quvchilarning jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan ehtiyojini shakllantirish va ularning jismoniy kuchlari va sog'lig'ini mustahkamlash muhim ahamiyatga ega.

Jismoniy tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy tarbiyalashda umumiy tamoyillar muhim ahamiyat kasb etadi.

Jismoniy tarbiyaning umumiy tamoyillari jismoniy tarbiyaning jismoniy tayyorgarlik va jismoniy rivojlanish bilan o'zaro bog'liqligi printsiptini o'z ichiga oladi. Bular:

- shaxsiyatni har tomonlama rivojlantirish tamoyili;
- jismoniy tarbiya yo'nalishini takomillashtirish tamoyili.

Jismoniy tarbiyaning jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik bilan o'zaro bog'liqligi printsipti inson hayotining barcha davrlarida jismoniy tarbiya muammolarini hal qilishda qo'llanilishi kerak. Bu shuni anglatadiki, jismoniy mashqlar jarayonida jismoniy sifatlarni shakllantirish sharoitida ishlatilishi mumkin bo'lgan motorli ko'nikma va jismoniy fazilatlarni rivojlantirish kerak.

Ushbu jarayonda o'qituvchining vazifasi mustaqil o'qitish rejasini tuzish, bir yillik mustaqil o'rganish uchun ma'naviy va sport yutuqlari chegaralarini belgilashga yordam berishdir.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5924-son farmon
2. Abdullaev A. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Darslik, - Farg'ona-2020 y. 286-b.
3. Maxmudov B.A. Jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlash mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. Toshkent-2023 y. 128-b.